

Ijaragirlarning sharoiti qanday?



11.11.2022

Ijaragirlarning sharoiti qanday?

"Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh. Narbaev boshchiligida fakultetga biriktirilgan tyutorlari, guruh murabbiylari ijarada yashovchi barcha talabalar holidan xabar olishdi. Barcha hududlarda ijarada va yaqin qarindoshnikida yashayotgan talabalar bo'yicha o'rganish tizimi joriy qilinib, barcha mas'ullar o'zlariga biriktirilgan hudud, qizil hududni o'rganishdan boshlashdi. Dekan, shuningdek, yoshlar bo'yicha dekan muovini tomonidan talabalarning yashash sharoitlarini tahlil qilinib, ularni o'z holiga tashlab qo'ymaslik, ular doimo nazoratdaligi ta'kidlandi.



Xususan, talabalar ijarada qaerda yashamoqda, kimnikida turibdi, yashash sharoiti qanday, darsdan keyin nima ish bilan mashg'ul bo'ladi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazadi, bu talabalarning o'qish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatmoqda kabi jiddiy masalalar bo'yicha ham ma'lumotlar berildi. Ayniqsa, kecha fakultet dekani Tosh sh. Shayxontoxur tumani Chilonzor, Oqtepa, Katta Oqtepa MFY Uvaysiy ko'ch. 29 - uy hamda Yunusobod tumani Xalqobod 2 - tor ko'cha 41- hovli o'yinlarga borib talabalarning xususiy uy-joylarda yashash sharoitlari ham o'rganildi.



Shuningdek, talabalar tomonidan ijaraga olinayotgan xonadonlarning yong'in va boshqa texnik xavfsizlik talablariga javob berish, talabalarda birlamchi yong'in va boshqa texnik xavfsizlik bo'yicha bilimlarini berishga bizni mas'ullarimiz batafsil ma'lumotlar berib kelishdi. Ushbu profilaktik tadbirlar ijarada turadigan talabalar bilan qamrovi va sifati oshiriladi degan umiddamiz.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti